

UYGA VAZIFA

1. Blender dasturida chiroq holatlarini o'zgartiring.
2. Blender dasturi obyekt transformatsiyasida ishlatiluvchi uskunalardan foydalanib ko'ring.
3. Transformatsiyada ishlatiluvchi tezkor tugmachalarni ishlatib ko'ring.

27-dars. 3D MODELLASHTIRISH DASTURIDA 3D MODELNI TAHRIRLASH. MESH OBYEKTLAR




Blender dasturida modellashtirilmochi obyekt turiga qarab tahrirlash rejimlarining har xil turlari mavjud. Har bir rejim turlicha o'zgarishlarni amalga oshiradi. Tahrirlash rejimlari to'plami obyekt turiga bog'liq. Masalan, kubni olti xil rejimda tahrirlash mumkin.





Kub obyekti *Mesh* obyektlar guruhiga mansub bo'lib, u vertikal (Vertex), qirra (Edge) va yuza (Face) tuzilmalaridan tashkil topgan (1).

Dastur "Object Mode" rejimida turganida kub bilan ishlashning umuman imkon yo'q. Shuning uchun "Edit Mode" rejimiga o'tish zarur (1). Blenderda "Edit Mode" rejimiga o'tish klaviaturaning "Tab" tugmachasini bosish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, 3D Viewportda ochiluvchi ro'yxat yordamida ham obyektni o'zgartirishning boshqa rejimiga o'tish mumkin (2).

"Edit Mode" rejimi "Move", "Rotate" va "Scale" obyekt transformatsiyalari kabi ishlaydi. Biroq transformasiyalar vertikal, qirra va yuzalargagini qo'llaniladi.

3D modelning "Edit Mode" rejimidagi elementlarni tanlash, obyektlar singari, sichqonchaning chap tugmachasini bosish orqali amalga oshiriladi. Agar bir nechta elementni tanlash kerak bo'lsa, u holda "Shift" tugmachasi bosib turiladi (3).



Vertex tahrirlash



Edge tahrirlash 	
Face tahrirlash 	
“Shift” tugmachasini bosgan holda, “Face” (rasmda: kubning ikki yuzasini) tahrirlash 	

Har bir obyekt markaz vazifasini bajaruvchi markaziy nuqtaga ega bo’ladi. U obyekt rejimida ham, tahrirlash rejimida ham aks etadi.

Obyektning koordinatalari markaziy nuqtaning joylashuvi bilan belgilanadi. “Object Mode” rejimidagi barcha jarayonlar unga nisbatan amalga oshadi. Masalan, “Rotate” (R) tugmachasi bosilganda, markaziy nuqta kubning markazida bo’lsa, kub o’z joyida aylanadi (4).

3D modelning markaziy nuqtasini o’zgartirish uchun sichqonchaning o’ng tugmachasi bosiladi. Hosil bo’lgan kontekst menyudan “Set Origin – Origin to 3D Cursor” bandi tanlanadi. Ya’ni 3D kurstor joylashgan joyni markaziy nuqta deb qabul qiladi (5).







MESH OBYEKTALAR

Blender dasturida 3D modellashtirish uchun ko'plab obyektlar mavjud. Bunday obyektlardan biri Mesh obyektlardir. Ulardan murakkab shakllar yaratishda foydalaniladi. Mesh obyektlarga misol sifatida kub, silindr, sfera va hokazolarni keltirish mumkin.

Blender dasturida 10 ta mesh obyekt mavjud, 3D Viewport muharriri paneli orqali "Add—Mesh" qo'shish mumkin (6).



- *Plane* – tekislik. Bu mesh 3D obyekt emas, u tekis va qalinlikga ega emas. Undan sirt, yuza, pol va oynalar yasaladi. U stol ustida yotgan qog'ozga o'xshaydi (1);
- *Cube* – Blenderning asosiy 3D mesh obyekti. U to'rtburchak modellarni loyihalash uchun juda qo'l keladi (2);
- *Circle* obyekti 3D obyekt sifatida ko'rinnmaydi, lekin uni 3D ko'rinishida shakllantirish mumkin (3);
- *UV Sphere* – doira va segmentlardan hosil bo'lgan shar. U parallelar va meridianlardan iborat globusga o'xshaydi (4);
- *Ico Sphere* – uchburchaklardan hosil bo'lgan shar (5);
- *Cylinder* silindr ko'rinishidagi 3D obyektlarni hosil qilishda ishlataladi (6);
- *Cone* konus ko'rinishidagi 3D obyektlarni hosil qilishda ishlataladi (7);
- *Torus* yordamida silindrga o'xshash ikki tomoni ochiq 3D obyektlar yaratiladi (8);
- *Grid* – qismlarga ajratilgan tekisliklardan tashkil topgan kvadratik panjara (9);
- *Monkey* maymun boshi kabi 3D model qo'llaniladigan hodisalarini testdan o'tkazish (yaratilgan 3D model buzilmasligi uchun rang, teksturalarni sinab ko'rish)da ishlataladi (10).



Shuningdek, bu menyuni klaviaturaning "Shift + A" tugmachalar birikmasi orqali ham chaqirish mumkin.

DIQQAT




"Plane", "Circle" va "Grid" obyektlari ikki o'lchamli bo'lishiga qaramay, tahrirlash rejimida ularni uch o'lchovli qilish mumkin.


AMALIY MASHG'ULOT

Blender dasturini ishga tushiring va "New file" bandidan "General" buyrug'ini tanlang.



Sahnadagi kubni belgilab, "Delete" tugmachasi bilan uni o'chiring.




Bo'sh sahnaga "Shift+A" tugmachalarini bosib, hosil bo'lgan menyudan "Add—Mesh—Cylinder" bandini tanlang.




"Cylinder" xossalaridan "Vertex"lar sonini 8 ta qilib belgilang.




"Move" uskunasida obyekt balandligini oshiring.




"Tab" tugmachasini bosib, "Edit mode" rejimida obyektga "Ctrl+R" tugmachalarini bosib, 2 ta "Loop Cut" o'rnatiting.





3D modelning yuqori qismidagi "Face"larni sichqonchaning chap tomoni va "Alt" tugmachasi yordamida belgilang.




"Scale" (S) yordamida quyidagi ko'rinishga keltiriting:




3D modelning ikkita
“Edge” qismini
“Alt+Shift” bilan
belgilab olib, “CTRL+B”
tugmachalari
yordamida unga
qirralarni qo’shing.



Pastki “Edge” qismida
ham mana shu amalni
takrorlang.



“Tab” tugmachasini
bosib, “Object Mode”
rejimida 3D modelni
ko’ring. Yaratilgan 3D
modelni “flask.blend”
nomi bilan saqlab
qo’ying.



Mavzu yuzasidan savollar



1. Mesh obyektlarni sanab bering.
2. Vertex nima?
3. Edge nima?
4. Face nima?
5. “Edit Mode” rejimiga qanday o’tiladi?

UYGA VAZIFA



1. Blender dasturida “Edit Mode” va
“Object Mode” rejimlariga o’tishni sinab
ko’ring.
2. Blender dasturi sahnasiga “Mesh”
obyektlarni joylab ko’ring.